Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 10 (2026) Published October 14, 2026

ISSUES OF PREVENTING CORRUPTION-RELATED CRIMES AND FOREIGN EXPERIENCE

Abdullayev Sunnat Nurulla o‘g‘li

Second-year student in the Jurisprudence program at Sarbon University

Abstract

This article analyzes the legal, organizational, and institutional mechanisms for preventing corruption-related crimes, as well as the experience of foreign countries. It substantiates the need to go beyond criminal liability by identifying and eliminating the conditions that contribute to corruption before crimes occur. The study examines the legislation of the Republic of Uzbekistan, international standards, and the experiences of Singapore, Hong Kong, the United Kingdom, and the United States. As a result, an integrated approach is proposed based on identifying corruption risks, eliminating their underlying causes, developing digital monitoring, strengthening reporting mechanisms, and ensuring the inevitability of liability.

Keywords

Corruption-related crimes, corruption prevention, crime prevention, conflict of interest, asset recovery, international experience.

KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISH MASALALARI VA XORIJ TAJRIBASI

Abdullayev Sunnat Nurulla o‘g‘li

Sarbon universiteti “Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olishning huquqiy, tashkiliy va institutsional mexanizmlari hamda xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jinoiy javobgarlik bilan cheklanmay, jinoyatga sabab bo‘luvchi shart-sharoitlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish zarurligi asoslanadi. Tadqiqotda O‘zbekiston qonunchiligi, xalqaro standartlar hamda Singapur, Gonkong, Buyuk Britaniya va AQSh tajribasi o‘rganiladi. Natijada xavflarni aniqlash, ularning sabablarini bartaraf etish, raqamli monitoringni rivojlantirish, xabar berish mexanizmlarini kuchaytirish va javobgarlikning muqarrarligini ta’minlashga asoslangan kompleks yondashuv taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Korrupsiyaviy jinoyat, korrupsiyaning oldini olish, jinoyatlar profilaktikasi, manfaatlar to‘qnashuvi, aktivlarni qaytarish, xorijiy tajriba.

Аннотация: В статье анализируются правовые, организационные и институциональные механизмы предупреждения коррупционных преступлений, а также опыт зарубежных государств. Обосновывается необходимость выхода за рамки уголовной ответственности посредством заблаговременного выявления и устранения условий, способствующих совершению коррупционных преступлений. В исследовании рассматриваются законодательство Республики Узбекистан, международные стандарты и опыт Сингапура, Гонконга, Великобритании и США. По результатам исследования предлагается комплексный подход, основанный на выявлении коррупционных рисков, устранении их причин, развитии цифрового мониторинга, совершенствовании механизмов информирования и обеспечении неотвратимости ответственности.

Ключевые слова: Коррупционные преступления, предупреждение коррупции, профилактика преступлений, конфликт интересов, возврат активов, зарубежный опыт.

Kirish. Korrupsiya zamonaviy davlat boshqaruvi va huquqiy tizim oldidagi dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biridir. U davlat organlari faoliyati, iqtisodiy raqobat, fuqarolarning davlatga ishonchi, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat jinoyat sodir etgan shaxsni jazolash, balki jinoyatga sabab bo‘luvchi omillarni oldindan aniqlash va bartaraf etishni ham qamrab olishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunida qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligi, profilaktika ustuvorligi hamda javobgarlikning muqarrarligi asosiy prinsiplar sifatida belgilangan [1]. Biroq korrupsiyaga qarshi choralar ko‘pincha jinoyat sodir etilgandan keyingi aniqlash, tergov qilish va jazolashga qaratiladi. Samarali profilaktika esa korrupsiyaga imkon beruvchi institutsional zaifliklarni oldindan aniqlashni talab etadi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida ham korrupsiyaning oldini olish, davlat boshqaruvida halollik va shaffoflikni ta’minlash, tegishli organlar faoliyatini

kuchaytirish hamda jamoatchilik ishtirokini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan [2]. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini aniqlash, xorijiy tajribani qiyosiy o‘rganish va undan O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Korrupsiya jinoyat huquqi, kriminologiya, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi doirasida keng o‘rganilgan. Robert Klitgaard korrupsiyani boshqaruvdagi monopoliya, mansabdor shaxslarning diskretsion vakolatlari va hisobdorlikning yetishmasligi bilan bog‘lab, uning oldini olish uchun boshqaruv sharoitlarini takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi [3]. Susan Rose-Ackerman va Bonnie J. Palifka esa korrupsiyani kamaytirishda davlat institutlarini isloh qilish, manfaatlar to‘qnashuvini cheklash va yuqori xavfli sohalarda nazoratni kuchaytirish muhimligini asoslaydi [4].

OECD tavsiyalarida korrupsiyaga qarshi siyosatni yaxlit halollik tizimi asosida tashkil etish, xavflarni oldindan aniqlash va ichki nazoratni kuchaytirish zarurligi qayd etilgan [5; 6]. World Bank va StAR tadqiqotlarida korrupsiyadan olingan noqonuniy aktivlarni aniqlash, muzlatish, musodara qilish va qaytarish mexanizmlari yoritilib, noqonuniy iqtisodiy manfaatlarni bartaraf etishning ahamiyati ko‘rsatilgan [7]. Mansabdor shaxslarning mol-mulkini deklaratsiya qilishga oid tadqiqotlarda esa ma’lumotlarni tekshirish va aniqlangan nomuvofiqliklarga huquqiy baho berish zarurligi ta’kidlanadi [8].

Xorijiy tajriba korrupsiyaning oldini olishda davlat va xususiy sektorning hamkorligi muhimligini ko‘rsatadi. AQShning Foreign Corrupt Practices Act qonuni bo‘yicha rasmiy qo‘llanmada korporativ komplayens, ichki nazorat va buxgalteriya hisobining ahamiyati yoritilgan [9]. Buyuk Britaniyaning Bribery Act 2010 qonuni esa tashkilotlarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali tartib-taomillarni joriy etishga e’tibor qaratadi [10]. Singapur tajribasi huquqni muhofaza qilish va davlat boshqaruvida halollikni ta’minlash mexanizmlarini uyg‘unlashtirsa [11], Gonkongning Independent Commission Against Corruption modeli korrupsiyaga qarshi kurash, profilaktika va jamoatchilikni xabardor qilishni yagona tizimda birlashtiradi [12].

UNODC materiallarida Korrupsiyaga qarshi konvensiyani milliy qonunchilikka tatbiq etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan [13]. UNODC va StAR tashabbusi doirasidagi tadqiqotlarda esa korrupsiyadan olingan aktivlarni qaytarish hamda davlatlar o‘rtasidagi huquqiy hamkorlik mexanizmlariga e’tibor qaratilgan [14]. Umuman olganda, mavjud tadqiqotlarda korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy, institutsional va iqtisodiy jihatlari yoritilgan bo‘lsa-da, ularni yagona profilaktik tizimga birlashtirish masalasi qo‘shimcha tadqiqotni talab qiladi. Maqolaning ilmiy yangiligi korrupsiyaviy xavflarni oldindan aniqlash, ularning sabablarini bartaraf etish, raqamli monitoring va javobgarlik mexanizmlarini yagona tizimda uyg‘unlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni asoslashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqotda kompleks, tizimli, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik, institutsional va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Formal-yuridik metod orqali O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar va korrupsiyaning oldini olishga oid huquqiy mexanizmlar o‘rganildi.

Qiyosiy-huquqiy metod asosida O‘zbekiston tajribasi Singapur, Gonkong, Buyuk Britaniya va AQSh tajribasi bilan solishtirildi. Institutsional tahlil orqali korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi vakolatlarning haddan tashqari konsentratsiyasi, nazoratning sustligi, manfaatlar to‘qnashuvi, shaffoflikning yetishmasligi va inson omiliga haddan tashqari bog‘liqlik kabi xavf omillari tahlil qilindi.

Funksional tahlil yordamida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi institutlarning vazifalari va ularning o‘zaro aloqasi o‘rganildi. Tadqiqotning konseptual asosini korrupsiyaviy jinoyatni sodir etilgandan keyin aniqlash emas, balki unga olib keluvchi xavfni jinoyat sodir etilishidan oldin aniqlash va bartaraf etish g‘oyasi tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olishda birinchi muammo korrupsiyaning yashirin xususiyatga ega ekanligidir. Oddiy jinoyatlardan farqli ravishda korrupsiyaviy munosabatlarda jinoyat ishtirokchilarining o‘zaro manfaatdorligi ko‘pincha jinoyat haqida xabar berilmasligiga sabab bo‘ladi. Shu bois korrupsiyani faqat murojaat yoki jinoyat haqida kelib tushgan ma’lumot asosida aniqlash yetarli emas.

Ikkinchi muammo mansabdor shaxsga berilgan diskretsion vakolatlarning yetarli nazoratsiz qolishidir. Qaror qabul qilish jarayonida bir shaxsning vakolati haddan tashqari keng bo‘lsa, korrupsiyaviy kelishuv uchun imkoniyat oshadi. Shu sababli vakolatlarni taqsimlash va qaror qabul qilish jarayonida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish profilaktikaning muhim sharti hisoblanadi.

Uchinchi muammo manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlamaslikdir. Shaxsning xizmat vazifasi bilan shaxsiy yoki qarindoshlik manfaatlari kesishgan holatlarda qaror qabul qilish mexanizmi alohida nazoratni talab etadi.

To‘rtinchi muammo korrupsiyaga qarshi ichki nazoratning ayrim tashkilotlarda formal xarakterga ega bo‘lishidir. Ichki hujjatning mavjudligi o‘z-o‘zidan korrupsiya xavfi bartaraf etilganini anglatmaydi. Muhimi, ushbu hujjatlarning amalda ishlashi va xavf indikatorlari asosida muntazam tekshirilib borilishidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarning ustuvorligi belgilangan. Mazkur yondashuvdan kelib chiqadigan muhim xulosa shundan iboratki, korrupsiyaga qarshi siyosat preventiv va repressiv mexanizmlarning o‘zaro bog‘langan tizimidan iborat bo‘lishi kerak. Preventiv bosqichda korrupsiya xavfi aniqlanadi va unga imkon beruvchi shart-sharoitlar bartaraf etiladi. Repressiv bosqichda esa sodir etilgan jinoyat aniqlanib, aybdor shaxs qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Singapur tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional yondashuvini ko‘rsatadi. Mazkur modeldan O‘zbekiston uchun olinadigan asosiy saboq korrupsiyaviy jinoyat sodir etilgan har bir holatni alohida jinoyat sifatida emas, balki tegishli tashkilotdagi tizimli xavf signali sifatida ham ko‘rib chiqish zarurligidir.

Gonkong tajribasi esa korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qilish, profilaktika va jamoatchilikni tarbiyalashni yagona tizimga birlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida ham korrupsiyaga qarshi kurashuvchi institutlar faoliyatini aniqlash, oldini olish va huquqiy-ma’rifiy ta’sir yo‘nalishlarida yanada integratsiyalashgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Buyuk Britaniyaning Bribery Act 2010 qonunchiligi tashkilotlarning o‘zida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha yetarli tartib-taomillarni shakllantirishga e’tibor

qaratadi [10]. Ushbu tajriba O‘zbekiston uchun davlat tashkilotlari va xususiy sektorda komplayens tizimlarini formal talab emas, balki real korrupsiyaviy xavflarni boshqarish vositasiga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.

AQSh tajribasida korporativ komplayens va ichki nazoratning rivojlanganligi korrupsiyaviy xavflarni jinoyat sodir bo‘lishidan oldin aniqlash imkonini beradi [9]. Shu sababli davlat xaridlari, litsenziyalash, ruxsat berish, soliq, bojxona va boshqa yuqori xavfli sohalarda davlat va xususiy sektorning ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy davlatlar tajribasining qiyosiy tahlili. 1-jadval[1]

Davlat	Asosiy institut	Asosiy mexanizm	O‘zbekiston uchun ahamiyati
Singapur	CPIB	Mustaqil tergov, qat’iy javobgarlik va profilaktika	Korrupsiya xavflarini erta aniqlash va institutsional nazoratni kuchaytirish
Gonkong	ICAC	Tergov, profilaktika va jamoatchilik bilan ishlashning yagona tizimi	Profilaktika va huquqiy targ‘ibotni yagona mexanizmga birlashtirish
Buyuk Britaniya	Bribery Act 2010	Tashkilotlarning korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha yetarli choralarni ko‘rishi	Tashkilotlarda komplayens va ichki nazoratni kuchaytirish
AQSh	FCPA	Korrupsiyaga qarshi talablar, ichki nazorat va hisobdorlik	Biznes subyektlarida korrupsiyaga qarshi ichki mexanizmlarni rivojlantirish

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning iqtisodiy mohiyati ham alohida e’tibor talab qiladi. Korrupsiyadan olingan noqonuniy daromadlarni aniqlash, muzlatish, musodara qilish va qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda qaytarish korrupsiyaning iqtisodiy manfaatini kamaytiradi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini faqat aniqlangan jinoyatlar soni bilan emas, balki yetkazilgan zararning qoplanishi va noqonuniy aktivlarning qaytarilishi bilan ham baholash lozim.

Raqamlashtirish ham korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishning muhim vositalaridan biridir. Elektron davlat xizmatlari, davlat xaridlari va boshqa ma’muriy jarayonlarda raqamli tizimlardan foydalanish inson omilini kamaytirish, qaror qabul qilish jarayonini kuzatish va ma’lumotlar izini saqlash imkonini beradi. Biroq raqamlashtirishning o‘zi korrupsiyani avtomatik ravishda bartaraf etmaydi. U ma’lumotlar tahlili va mustaqil nazorat bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Tadqiqot natijasida muallif tomonidan korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish uchun “5 bosqichli korrupsiyaviy xavfni boshqarish modeli” taklif etiladi.

Korrupsiyaviy xavfni boshqarishning 5 bosqichli modeli. 2-jadval[2]

Bosqich	Mazmuni	Asosiy vosita	Kutilayotgan natija
1. Xavfni aniqlash	Korrupsiya yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sohalarni aniqlash	Risk tahlili va audit	Xavf manbalari aniqlanadi
2. Sababni aniqlash	Xavfni keltirib chiqarayotgan institutsional zaifliklarni o‘rganish	Huquqiy va institutsional tahlil	Asosiy sabablar aniqlanadi
3. Jarayonni qayta loyihalash	Korrupsiyaga imkon beruvchi jarayonlarni o‘zgartirish	Vakolatlarni ajratish, ochiqlik va soddalashtirish	Korrupsiya imkoniyatlari kamayadi
4. Raqamli monitoring	Jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish	Elektron tizimlar, ma’lumotlar tahlili	Inson omili va yashirin kelishuvlar xavfi kamayadi

[2] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

5. Javobgarlik va tizimli xulosa	Aniqlangan holat bo‘yicha javobgarlik va kelgusida takrorlanishining oldini olish	Javobgarlik, monitoring va tahlil	Tizim takomillashadi va takroriy xavf kamayadi

Mazkur model birinchi navbatda korrupsiyaviy xavfni aniqlashni, keyin uning sabablarini aniqlashni, korrupsiyaga imkon beruvchi jarayonni qayta tashkil etishni, raqamli monitoringni joriy qilishni va yakunda aniqlangan huquqbuzarlik uchun javobgarlikni ta’minlashni nazarda tutadi.

Ushbu modelning ilmiy yangiligi shundan iboratki, jinoyat sodir etilgan holat faqat yakuniy huquqiy oqibat sifatida emas, balki tizimdagi korrupsiyaviy zaiflikni aniqlash uchun signal sifatida baholanadi. Bunda quyidagi mantiqiy zanjir shakllanadi: korrupsiyaviy holat → sababni aniqlash → institutsional zaiflikni aniqlash → jarayonni o‘zgartirish → raqamli monitoring → takroriy xavfni kamaytirish.

Mazkur yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashni “jinoyat sodir bo‘ldi — shaxs jazolandi” shaklidagi reaktiv modeldan “xavf aniqlandi — sabab bartaraf etildi — takrorlanishining oldi olindi” shaklidagi preventiv modelga o‘tkazishga xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning reaktiv va preventiv modeli. 3-jadval[3]

Mezon	**Reaktiv model**	**Preventiv model**
Asosiy e’tibor	Sodir etilgan jinoyat va aybdorni aniqlash	Jinoyatga olib keluvchi xavf va sabablarni aniqlash
Harakat vaqti	Jinoyat sodir etilgandan keyin	Jinoyat sodir bo‘lishidan oldin
Asosiy vosita	Tergov, sud va jazo	Risk tahlili, nazorat, raqamlashtirish va profilaktika
Muammo	Sodir bo‘lgan qilmishning oqibatlarini bartaraf etish	Korrupsiyaga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yo‘qotish
Maqsad	Aybdorni javobgarlikka tortish	Korrupsiyaviy xavfni kamaytirish va takrorlanishining oldini olish
Natija	Alohida holat bo‘yicha javobgarlik	Tizimli va uzoq muddatli profilaktik ta’sir

[3] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston uchun ushbu modelni amaliyotga joriy etishda davlat organlarida korrupsiyaviy xavflarni muntazam baholash, har bir korrupsiyaviy jinoyat bo‘yicha uning tizimli sabablarini o‘rganish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, xabar beruvchilarni himoya qilish, davlat xaridlarida raqamli xavf indikatorlaridan foydalanish va xususiy sektorda komplayens tizimlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston uchun taklif etilayotgan amaliy mexanizmlar. 4-jadval[4]

№	Taklif	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
1	Korrupsiyaviy xavflarni muntazam baholash	Davlat organlari va tashkilotlarda davriy risk tahlilini joriy etish	Xavfli yo‘nalishlar oldindan aniqlanadi
2	Tizimli sabablarni tahlil qilish	Har bir aniqlangan holat bo‘yicha sabab va institutsional zaifliklarni o‘rganish	Bir martalik emas, tizimli profilaktika ta’minlanadi
3	Manfaatlar to‘qnashuvini nazorat qilish	Deklaratsiya, oshkor qilish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish	Yashirin manfaatdorlik xavfi kamayadi
4	Xabar beruvchilarni himoya qilish	Korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni huquqiy va tashkiliy jihatdan himoya qilish	Korrupsion holatlarni aniqlash imkoniyati oshadi
5	Raqamli monitoringni kengaytirish	Risk indikatorlari va elektron nazorat vositalaridan foydalanish	Inson omiliga bog‘liq xavflar kamayadi
6	Komplayens tizimini kuchaytirish	Tashkilotlarda ichki korrupsiyaga qarshi nazorat va monitoringni rivojlantirish	Ichki nazorat samaradorligi oshadi
7	Natijadorlik indikatorlarini kengaytirish	Faqat jazolanganlar soni emas, oldini olingan xavflar va bartaraf etilgan zaifliklarni ham baholash	Profilaktika samaradorligi aniqroq baholanadi

Xulosa. Korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish zamonaviy jinoyat siyosatining faqat jazolashga asoslangan yo‘nalishi bilan cheklanmasligi kerak. Tadqiqot natijalari

[4] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

korrupsiyaning oldini olishda jinoyat sodir etilgandan keyingi javobgarlik bilan bir qatorda jinoyatga olib keluvchi institutsional shart-sharoitlarni oldindan aniqlash muhimligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarning ustuvorligi belgilangan bo‘lib, bu xorijiy tajribani milliy tizimga joriy etish uchun huquqiy asos mavjudligini anglatadi. Xorij tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, samarali korrupsiyaga qarshi tizimlarda korrupsiyaviy xavflarni oldindan aniqlash, korrupsiyaga imkon beruvchi institutsional sharoitlarni o‘zgartirish va aniqlangan jinoyatlar uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash o‘zaro bog‘liq mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Singapur tajribasi institutsional nazorat va huquqni muhofaza qilishning uyg‘unligini, Gonkong tajribasi huquqni muhofaza qilish, profilaktika va jamoatchilik ta’limining birligini, Buyuk Britaniya tajribasi tashkilotlarning o‘zida korrupsiyaga qarshi profilaktika tizimini yaratish zarurligini, AQSh tajribasi esa korporativ komplayens va ichki nazoratning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Maqolaning asosiy ilmiy yangiligi sifatida taklif etilgan “xavfni aniqlash – sababni aniqlash – jarayonni qayta tashkil etish – raqamli monitoring – javobgarlik” modeli O‘zbekiston sharoitida korrupsiyaga qarshi siyosatni yanada preventiv va tizimli shaklga o‘tkazishga xizmat qilishi mumkin.

Demak, korrupsiyaga qarshi samarali kurashning asosiy mezoni faqat qancha jinoyatchi jazolangani emas, balki qancha korrupsiyaviy xavf jinoyat sodir bo‘lishidan oldin aniqlangani va qancha institutsional zaiflik bartaraf etilgani bilan ham o‘lchanishi lozim. Aynan shu yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashni reaktiv mexanizmdan preventiv boshqaruv tizimiga aylantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, LexUZ.

2. United Nations. United Nations Convention against Corruption. — New York: United Nations, 2003.

3. Klitgaard R. *Controlling Corruption.* — Berkeley: University of California Press, 1988. — 230 p.

4. Rose-Ackerman S., Palifka B. J. *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform.* 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2016.

5. OECD. *Recommendation of the Council on Public Integrity.* OECD/LEGAL/0435. — Paris: OECD, 2017.

6. OECD. *Public Sector Integrity: A Framework for Assessment.* — Paris: OECD Publishing, 2005.

7. World Bank, UNODC Stolen Asset Recovery Initiative (StAR). *Public Office, Private Interests: Accountability through Income and Asset Disclosure.* — Washington, DC: World Bank, 2012.

8. Brun J.-P., Sotiropoulou A., Gray L., Scott C., Stephenson K. M. *Asset Recovery Handbook: A Guide for Practitioners.* 2nd ed. — Washington, DC: World Bank, 2020.

9. U.S. Department of Justice, U.S. Securities and Exchange Commission. *A Resource Guide to the U.S. Foreign Corrupt Practices Act.* 2nd ed. — Washington, DC, 2020.

10. United Kingdom. *Bribery Act 2010.* Chapter 23. — London: The Stationery Office, 2010.

11. Corrupt Practices Investigation Bureau (CPIB). *Prevention of Corruption; Singapore's Corruption Control Framework.* — Singapore.

12. Independent Commission Against Corruption (ICAC). *Three-pronged Approach: Law Enforcement, Corruption Prevention and Community Education.* — Hong Kong.

13. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *Legislative Guide for the Implementation of the United Nations Convention against Corruption.* — Vienna: United Nations.

14. UNODC, World Bank Stolen Asset Recovery Initiative (StAR). *Digest of Asset Recovery Cases.* — Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime, 2015.